



Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

ULUG' MA'RIFAT TARG'IBOTCHISI G'AZZOLIYNING TIL OFATLARIGA MUNOSABATI

Nurullayeva Munisa

Nizomiy nomidagi O'zMPU Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

Atabayeva Go'zal Farxodovna

Ilmiy rahbar: PhD dotsent

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada G'azzoliyning til sababli boshning qanday balolarga duchor bo'lishi mumkinligi, yaxshi va yomon so'zning oqibatlari, g'iybat, chaqimchilik, g'aflay, tilyog'lamalik, so'kinib gapirishga bo'lgan fikrlari, umuman olganda, tilning qanday ofatlari borligi haqidagi qarashlari keltirilgan.

KALIT SO'ZLAR : Til, din, ofat, iymon, oqibat, g'iybat, chaqimchilik, g'aflat

"Til ofatlari" kitobi Abu Homid G'azzoliyning mashhur "Ixyou ulumid-din" asarining "Muxlikot" (halokatda olib boruvchi ofatlar) qismidan tanlandi. Kitobda muomala odobi, yuksak axloqiy intizom masalalari oyat, hadislar asosida va sahobalarning so'zlari, ibratomuz rivoyatlar, ta'sirchan hikoyatlar orqali batafsil yoritilgan. Sharq an'anasiga muvofiq Allohga hamd va Payg'ambarimizga nat bilan boshlangan. Kitob muqaddimasida " Insonga eng itoatsiz a'zo tildir. Chunki bu suyaksiz a'zoning osongina harakatga kelishi, hech bir mashaqqatsiz yugurikligi kutilmagan oqibatlarga sabab bo'ladi" - deyiladi. Haqiqatan ham, bugun eng yirik davlatlar orasidagi kelishmovchiliklardan tortib, oddiy kishilar o'rtasida tug'ilgan nizolargacha, barchasi til ofatlari tufayli keskinlashib, adovat darajasigacha yetyapti. Keraksiz, behuda gaplar, uzun bahs-



Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

u tortishuvlarga, behayolarcha bir - birovini so'kislarga, hatto sharmandali "zo'ravonliklarga" sabab bo'layotganini hech birimiz inkor eta olmaymiz. Har xil yomon gumonlar odamlar orasida xusumat va o'zaro dushmanlikni paydo etib, bir - birini masxaralash, sirlarini ochib, beobro' qilish, yolg'on, g'iybat, ig'vo, tilyog'lamalik, chaqimchilik kabi shaytonning qurollariga nishon qilyapti. O'ylab qarajak, dinimizga, imonimizga to'g'ri kelmaydigan, zid bo'lgan barcha millatlar shu birgina til ortidan kelib chiqargan. Bu illatlarni yo'q qilish uchun esa faqatgina tilni emas, dilimizni ham poklashimiz kerak. Chunki har doim dilimizdagi tilimizga chiqadi. Ayrim dili boshqa, tili boshqa insonlar ham oramizda yo'q emas, albatta. Ammo mana shu tilyog'lamachiliklarining o'zi ham gunohdir.

Til - Ollohning ulug' ne'mati, ajib-u Latif san'atidir. Garchi u jisman kichik bo'lsa ham itoat tufayli topadigan savobi yoki itoatsizligi tufayli sodir etadigan gunohi juda katta. Chunki kufr ham, imon ham faqat til guvohligida ayon bo'ladi. Ilm nimani o'z ichiga olgan ekan, til uni xoh haq, xoh nohaq tomondan ifodalaydi. Bu xususiyat tildan boshqa a'zarda mavjud emas. Ya'ni har bir a'zomiz muayyan vazifani bajarish bilan cheklangan, ammo tilda chegara yo'q. Qiziq, nima uchun biz qo'limizni issiq suv yoki olovga tekkizsak, kuyib qolib, jonimiz ozorlanishini bilib, qo'limizni o'sha issiqlikdan himoya qilib, unga yaqinlashmasligi uchun boshqara olamiz-u, lekin tilimizdan chiqadigan yomon so'zlar, ofatlar sabab boqiy dunyoda jazolanishini, do'zaxda kuyib, jonimiz azoblanishini bila turib, tilimizni ham xuddi boshqa a'zolarimizdek, boshqara olmaymiz, himoya qilolmaymiz, umuman, tilimizni tiyib yura olmaymiz. Mana shu kabi tilimizdan kelib chiqadigan ofatlarning oldini olish va barcha yechimlar aynan shu kitobda keltirilgan. G'azzoliy 20 ta til ofatlarini sanab, ularga hadis, Payg'ambarimiz s.a.v. so'zlari bilan yechim topgan. Masalan, tilni tiyib yurish haqida: Safvon Ibn Salimdan rivoyat qilinadiki, " Payg'ambar alayhissalom shunday dedilar:" Ibadatning eng oson va badan uchun eng yengilini aytaymi? Bu - jim yurish va



Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

go'zal xulq! "(muttafakun alayh). Demak, jim yurishimizning o'zi ham ibodat. Negaki jim yurganimizda g'iybat ham, chaqimchilik ham qila olmaymiz. Va bu bizni gunohdan saqlaydi. Gunohdan saqlanganimiz esa - ibodat, albatta. Hattoki ssahob, go'zal xulqli Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu tilini gapdan tiyish uchun og'ziga tosh solib yurgan ekan. U tiliga ishora qilib : "Bu meni ko'p balolarga duchor etdi", degan ekan. Jim yurgan inson bu dunyoda so'zlar charchog'idan, oxiratda u so'zlar uchun hisob berishdan xalos bo'larkan. Behuda gap ham til ofati sirasiga kirib, behuda narsalarga tilimizni ishlatganini uchun ham hisob beramiz. Va bu ishimiz yaxshi narsani yomon narsaga almashtirish bilan barobar bo'larkan. Muallif bu bilan nima demoqchi? Ya'ni biz behuda gaplarga sarflagan vaqtimizni fikrlashga, Allohni zikr qilishga sarflasak, ko'p yaxshiliklar yetishini uqtirmoqchi. Chunki zikr uchun ham, behuda so'zlar uchun ham shu tilimiz va vaqtimizdan foydalanamiz, qay birini tanlash esa o'zimizga bog'liq. Bunday besamar gaplarimiz gunoh hisoblanmaydi, lekin shunchaki, vaqtimizni yo'qotamiz. Keyingi o'rinda mahmadonalikni ham qoralab, Yazid Ibn Abu Habibning: " Bu olamning fitnasi tinglashdan ko'ra gapirish suyukliroq bo'lib qolgani tufaylidir. Chunki tinglashda - salomatlik, gapdan - ziynatlash, ortiqchalik va nuqson bor" - degan so'zlarini keltirgan. Eng yomoni botil (Haqqa zid) so'zlarga berilish hisoblanib, bu xarom deb topilgan. Payg'ambarimiz alayhissalom dedilar: " Qiyomat kunida xatolari eng ko'p deb topilgan odamlar botilga eng ko'p sho'ng'igan kishilardir" (Ibn Abu Dunyo rivoyat). Albatta, biz musulmonlar uchun Haqqa zid so'zlar aytish katta gunohdir. G'azzoliy shariatimiz ortiqcha bahs-u mujodaladan qaytarishini aytib, suhbatdoshini gapirtirmasdan "o'chirib" qo'yish, kamsitish, nodonlikda ayblash maqsadida qilinadigan bahs, shubhasiz, tortishuvga aylanishini ta'kidlaydi. Va Payg'ambarimiz alayhissalomning : " Kim haq bo'la turib, bahs-u jadalni tark etsa, uning uchun Jannati a'loda bir uy bino qilinadi. Kim nohaq bo'lgani holda bahs-u jadalni tark



Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

etsa, uning uchun Jannat qo'rg'onida bir bino qilinadi", - so'zlarini keltirib o'tgan. Ammo biz bu nasihatlariga amal qilmaymiz. Bahs boshlanganda, haq bo'lganimizda, umuman, jim turolmaymiz, nohaq bo'lsak ham bahsni to'xtatmaymiz. Vaholanki bu ham bir ofat ekan. Xusumat esa keyingi ofat bo'lib, to'g'ridan to'g'ri yoki e'tiroz shaklida yuzaga keladigan tortishuv, nizo. Xusumatni boshlagan odam qasdma qasd bo'lib qoladi, eng kamida xayoli buziladi. Hatto namozida ham raqibining dallillarini taftish etish bilan band bo'ladi. Ish to'la izdan chiqadi. Ammo o'z haqqini talab qilish maqsadida xusumatlashgan odam qoralanmaydi. Shu bilan bir qatorda vaysaqilik, so'kish, la'natlash ham til ofati ekani va haqiqiy musulmon bunday so'zlardan, la'natlardan o'zini tiyishi kerakligi hadislar bilan uqtiriladi. Hattoki hazil-huzul ham aslo qoralangan bo'lib, shariatga bizni undan qaytargan ishdir. Ammo yengil darajadagi mutoyibaga istisno tariqasida ruxsat berilgan. Shunday savol tug'ilishi, tabiiy hol: to'g'ri, tortishuvda ozor bor, biror kishini dilini og'ritib qo'yish mumkin, ammo hazil-mutoyibada quvnoqlik bor-ku, shulardan ham qaytarilganmizmi? Bu boradagi qaytariq haddan oshgan yoki doimiylik tusini olgan hazil - huzulga qaratilgan. Chunki doimiy hazilga o'rganib qolsa, bu uning ermagiga aylanadi, tabiati hazilga moyil bo'lib qoladi. To'g'ri, qandaydir ermak bilan ovunish ixtiyoriy ish. Lekin o'sha ermakka uzluksiz bog'lanib qolish noto'g'ri. Hazil haddan ohsa kulgi ko'payadi. Ko'p kulish qalbini o'ldiradi, ichmni nafratga to'ldiradi, mahobat va viqorni ketkizadi. Albatta, mana shu illatlardan holi bo'ladigan darajadagi hazil - mutoyiba qoralanmaydi. Payg'ambarimiz alayhissalomdan rivoyat qilinadi: "Albatta, men ham hazil - mutoyiba qilaman, lekin faqat Haqiqatni gapiraman". Va bulardan tashqari Mo'min kishi uchun masxaralash, sirni ochish, yolg'on va'da, yolg'on qasam, g'iybat, chaqimchilik, tilyog'lamalilik, maqto'v, g'aflat, avomlar savoli ham til ofatlariga ekan. G'iybat qilishning tildagisi ham, dildagisi ham g'iybat hisoblanib, qoralanadi.



Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Xullas, muallif bu ofatlarning barini oldini olish uchun tilni tiyishdek mushkul ishni bajarish va haqiqiy musulmon inson uchun Ollohni eslab, bu ishi gunoh ekanini anglab yetishining o'zi yetarli ekanini uqtirmoqchi. Eng muhimi bu zabonimiz bilan Allohni h biron bandasini dilini og'ritmaylik. Zero, Kabani Ibrohim alayhissalom qurgan bo'lsa, Ko'ngil Olloh qurgan binodir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Atabayeva G.F. The sign content of "Ffu" novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
2. Atabayeva.G.F. "Humanizm in the novel of A. Yakubov" актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
3. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go'zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.
4. Abu Homid G'azzoliy. "Ihyou ulumid-din" Birinchi kitob: Ilm kitobi, Movarounnahr nashriyoti, Toshkent, 2005.
5. Abu Homid G'azzoliy. "Til ofatlari" (Tarjimon: Rashid Zohid), Hilol Nashr, Toshkent, 2017.